

XITOIY IYEROGʻLIFLI YOZUVLARINING IFODALANISH FUNKSIYASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7355405>

TO‘RAYEV Feruz

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

This article is about what kind of meanings may the characters indicate. We researched features of reading of characters and grammar specialties.

Xitoycha belgili iyeroglifli yozuvlar xitoy tili yozuvining ifodalanishida lingvistik birlik vositasi bo‘lishi uchun har bir bo‘g‘inli morfemaga mos ravishda yozuvli belgi qo‘yiladi. Bir ma’noli bir-biriga mos bo‘g‘inli va yozuvli belgilar har doim ham uchramaydi.

Yozuvli belgi ma’noli bo‘g‘in morfema bilan aloqada bo‘lganda bir xil belgilar ikki xil turdagi morfemalarda ham qo‘llanilishi mumkin yoki aksincha, ya’ni yozuvda bir xil morfema ikki xil belgida berilishi mumkin. Morfemadan yozuvli belgiga harakatlanayotgan paytda morfema bir iyeroglifda berilib turib, talaffuz paytida o‘qilishida farq bo‘lishi mumkin. Belgidan iyeroglifli morfemaga harakatlanayotganda nafaqat ba’zi morfemalarni anglatadi balki, katta yoki kichik darajada mos keluvchi morfemaning ifodalanishidan farq qiluvchi o‘ziga xos o‘qilishga ham ega bo‘ladi. Bunday holatda morfema ikki xil o‘qilishga ega bo‘ladi, ya’ni og‘zaki va adabiydir. Iyerogliflarni bunday ikki xil o‘qilishi janubiy sharqiy dialektlarda ko‘p uchraydi. Biroq guanhua dialektida kamdan kam uchraydi.

Yozuvdagi belgilar o‘qilishi ya’ni og‘zaki nutqdagi ma’lum bir mos keluvchi bo‘g‘in morfemalarning haqiqiy talaffuzi, xitoy tilidagi dialektlardan biriga yoki milliy til putunhuaga mos keladi. Adabiy tilning manbai bu lug‘atlar va maktab qo‘llanmalari hisoblanadi. Asosan, matnli yozuvlarda uchraydigan hamda milliy tilning hech qanday morfemalariga mos kelmaydigan yozuvli belgilarning o‘qilishini faqatgina an’anaviy fonetik lug‘atlardan aniqlash mumkin. Bunday holatda iyeroglifli yozuv tilga nisbatan ma’lum darajada mustaqilligini saqlagan grafik tuzilishda ifodalanadi. Aynan shu sababli u yozuvga nisbatan o‘z talablarini ko‘rsatadi. Xitoy tilidagi belgilar soni umumiy hisobda shunchalik ko‘pki, inson xotirasi bularni yodida saqlab qolishga qodir emas. Iyeroglifli yozuv qachonki morfemalar soni cheklanib grafik korinishdagi ma’noni qabul qilsa o‘z vazifasini muvaffaqiyatli bajara olishi mumkin. Aynan shuning uchun yozuv madaniyatida iyeroglifli yozuv umumiy qabul qilingan tilning yaratilishiga yordam bergan. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bir necha yuz yillar davomida bunday tilning ishlatilishi hamda belgilarning ma’nosi og‘zaki nutqqa emas, balki eng birinchi navbatda madaniyatga oid matnlarga bog‘liq bo‘lgan. Xitoy tarixida ikkita mashhur yozuv mavjud bo‘lib, venyan qadimgi xitoy tili asosida tashkil topgan, bayhua esa XVI-XVIII asrlarda shimoliy dialektida tashkil topgan. Ularning tarixi yuqorida aytib o‘tganlarimizga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xitoy iyeroglifli yozuvi va yozma til venyan an’anaviy madaniyatning uyg‘unligini tashkil etgan vositasidir. Uning yordamida qadimgi xitoy tili yozuvidagi bir qancha muammolar hal etilgan. Ularning ichida xitoy leksikasidagi omonimlar guruhi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir morfemada grafik tasvirlarni ifoda etuvchi iyeroglifli yozuv tejamli bo‘lmasa-da, biroq omonimdagi ba’zi muammoli taraflarining yechimini topib beradi. Zamonaviy xitoy tili leksikasining dialekti ma’lum darajada qadimiy xitoydan yetib kelgan umumiy me’rosni ifodalaydi. Shuning uchun xitoy tilida turli xildagi dialektlar fonetik jihatdan mosligi bir-biriga aloqador, ya’ni dialekt ifodalovchisi tomonidan ham yaxshi tushunib yetilmaydi. Yozuvli belgilar bo‘g‘inli morfemalarni qaysi dialekt va qanday talaffuz qilinishidan qat’iy nazar aynan o‘xshashligi va mosligini topishga yordam beradi.

Bunday sharoitda xitoy iyeroglifli yozuvi bir necha asrlar davomida ikkita muhim lingvistik vazifani amalga oshirgan: omonimlarning yozuvdagi farqi va turli dialektidagi morfemalarning o‘xshashligi. Shuning uchun iyeroglifli yozuv xitoy madaniyati va lingvistik birligining muhim omillaridan deb qaraladi. Boshqa tomondan qaraganda, yuqorida sanab o‘tilgan iyeroglifli yozuvning chetdan ya’ni xitoy tili dialekti va chet tillari tomonidan sust qabul qilinishidir.

Umumiy xitoy yozuv madaniyati matnlarida dialekt va dialektli leksika qoida sifatida qo‘llanilmagan. Biroq umumiy xitoy yozuvi madaniyati qatorida Xitoyda yana mahalliy madaniyat ham rivojlandi. Mahalliy madaniyatga oid asarlarning ko‘pchiligi og‘zaki shaklda bo‘libgina qolmay balki yozma shakllari ham mavjud bo‘lgan va ular iyeroglifli yozuvda yozilgan. Bunday matnlarda milliy til va xizmat qiluvchi morfemalarda uchramaydigan dialektli leksikani ifodalashda maxsus belgilardan foydalanishgan. Bunday mahalliy iyerogliflarning bir qismi katta lug‘at kitoblarga joylash uchun yana bir qismi mahalliy, diqqatga sazovor joylarga yuborilardi. Ehtimol, bir qismi mahalliy maktablar an‘analariga kiritilib, yozuvli belgilar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lishi mumkin. So‘nggi o‘n yillikda bor yo‘g‘i bir qancha dialektli belgilar zamonaviy yozuv tiliga kiritildi. Iyeroglifli yozuv chet tillariga Xitoy tilini mos kelishida bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi.

Bo‘g‘inli tilga mo‘ljallangan yozuvni faqatgina katta kuch bilan boshqa fonemadagi bo‘g‘inli strukturadan so‘zlashuv tiliga moslashtirish mumkin. Xitoy tilida og‘zaki va yozma ko‘rinishdagi o‘zlashtirilgan so‘zlarni vazifalarini o‘rganish natijasida shuni aniqlashdiki, xitoyliklar hech qanday qiyinchiliksiz murakkab chetdan o‘zlashgan so‘zlardan foydalanadilar va xitoy tilidagi so‘zlarga moslaydilar. Bir tarafdin chet tillari so‘zlarining qo‘llanilishi, yozuvda ularning moslashuvi ko‘pincha iyeroglifli yozuvda qo‘pol va noqulay talaffuzli to‘siqlarga uchraydi. Murakkab moslashuvchi so‘zlar odatda xitoy tilida unchalik ko‘p yashamaydi, biroq qisqalari tez o‘zlashtiriladi. Shu qiyinchiliklar sababli ommalashgan xorijiy leksikaning moslashish shakli xitoy tilida xorijiy so‘z va terminlar tavsifida ifodalanadi.

Xorijiy geografik nomlar va atoqli otlar juda katta qismini tashkil etib, ular xitoy tiliga tarjima qilinmaydi. Ushbu qoidadan mustasno bo‘lgan so‘zlar ham mavjud bo‘lib, masalan, BaiGun <oq uy>, yoki Gun Xen <Lake Sacsess> bular unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Geografik nomlar va Atoqli otlar ko‘p qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri transkripsiyasi iyerogliflar orqali izohlanadi. Shu bilan birgalikda ular bo‘g‘inlarga arjatiladi va har doim ham dastlabki ajralgan bo‘g‘inlariga to‘g‘ri kelavermaydi. Shuning uchun ham eshutilganda ular har doim ham aniq tushunilmaydi. Bunday transkripsiyalarni milliy tilda yoki boshqa dialektlarda o‘qilganda noto‘g‘ri talqin qilinadi. Ko‘pchilik transkripsiyalar milliy til putunhuada bo‘ladi, ammo Min va Yue dialektlarida qilingan transkripsiyalar ham bo‘lib, ularni umuman tushunib bo‘lmaydi.

Bunday holatda xitoy iyeroglifli yozuvi juda qulay va aniq belgilangan yozuv hisoblanadi. Dunyo bilan tashqi aloqasi cheklangan bir davrda bunday o‘ziga xoslik xitoy tili va madaniyati rivojida hech qanday ahamiyatga ega emas edi. Biroq yangi davrda yozuvga bo‘lgan talab kuchayadi. Ammo asosiy talab axborotlar oqimi harakatida yozuv vositalari cheklovlarga duch kelmasligi, boshqa tomondan esa biri ikkinchisiga shartli belgilar orqali bog‘lanishidir. Zamonaviy dunyoda ko‘psonli milliy yozuvlar davrida bunday talablarning butunlay qondirilishi mumkin emas edi. Shuning uchun eng kichik talablarni qondirish maqsadida soddalashtirish orqali bir yozuvdan ikkinchisiga o‘tiladi. Zamonaviy madaniyat xitoy tili uchun shunday yozuvni talab qiladiki, yuqoridagi umumiy tasdiqning xitoy tiliga qo‘llanilishi, hech qanday shartli belgilersiz amalga oshirilishi lozim

REFERENCES

1. 故播刘。现代汉语动词与形容词特点。- 北京, 2003年.

2. 实话实说。- 商务印书馆，2001年。
3. 丁声树等。现代汉语语法讲话。- 北京：商务印书馆，1961年。
4. С.А.Хашимова. Хитой тили грамматикаси. - Т., 2012 йил.
5. С.А.Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2022.
6. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In *Resent Scientific Investigation* (pp. 69-73).
7. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (p. 361).
8. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
9. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
10. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
11. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
12. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
13. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMUY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
14. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
15. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
16. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
17. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
18. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
19. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
20. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019